



DIZARTRIYA NUTQ NUQSONINI KELIB CHIQISH SABABLAR, TURLARI
VA UNING TARIXI.

Razzoqova Surayyoxon

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maxsus pedagogika logopediya
yo'nalishi 102-gurux talabasi

Axmedova Vazirxon Tursunbayevna

Ilmiy raxbar:

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq buzulishlarining eng murakkab ko'rinishlaridan biri hisoblangan dizartriya masalasi yoritilgan. Tadqiqotlarda dizartriyaning sabablari turlicha ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Maqolada olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar asosida dizartriyaning klinik ko'rinishlari va ularning tasnifi yoritilgan. Ushbu nutq nuqsonini chuqur tadqiq etish orqali uni erta aniqlash tashxis qo'yish va reabilitatsiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda ushbu tadqiqot natijalari logopediya sohasida ishlayotga mutaxasislar hamda amaliyotchi talabalar uchun qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'z: Dizartriya, nuqson, tovush, neyranatomik, serebral, koordinator, motorika, artikulyatsiya, neyrolingvistik, psixologik, pedagogik, anartriya, kompleks.

Abstract: This article discusses the issue of dysarthria, which is considered one of the most complex manifestations of speech disorders. Studies have shown that the causes of dysarthria are diverse. The article discusses the clinical manifestations of dysarthria and their classification based on research conducted by scientists. The results of this study can serve as a guide for specialists and practicing students working in the field of speech therapy in order to identify this speech defect early, make a diagnosis, and properly organize the rehabilitation process through in-depth research.

Keywords: Dysarthria, defect, sound, neuroanatomical, cerebral, coordinator, motor, articulation, neurolinguistic, psychological, pedagogical, anarthria, complex.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема дизартрии, которая считается одним из наиболее сложных проявлений речевых нарушений. Исследования показали, что причины дизартрии многообразны. В статье рассматриваются клинические проявления дизартрии и их классификация, основанная на исследованиях учёных. Результаты данного исследования могут служить руководством для специалистов и практикующих студентов, работающих в области логопедии, для раннего выявления данного речевого дефекта, постановки диагноза и правильной организации процесса реабилитации посредством углубленного исследования.

Ключевые слова: дизартрия, дефект, звук, нейроанатомический, церебральный, координаторный, двигательный, артикуляционный, нейролингвистический, психологический, педагогический, анартрия, комплексный.



Nutq buzulishlarning paydo bo'lishi ko'p xollarda, biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro murakkab tasirlar bilan bog'langan bo'ladi. Nutqning shakllanishi uchun miyadagi markazlar eshitish va ko'rish tizimlari, tovush aparati shuningdek bolaning psixologik xolati va atrof muxitdagi til muxitining sifatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Agar ushbu, tizimlardan biri yetarlicha rivojlanmagan yoki zararlangan bo'lsa, nutqning to'liq shakllanishida turli darajadagi buzulishlar kuzatilishi mumkin. Nutq buzulishlari bolaning muloqot qilishiga, o'z fikrini erkin ifodalashga ta'lim olishga va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga salbiy tasir ko'satadi. Shu sababli erta tashxislash, to'g'ri pedagogik yondashuv va logopedik mashg'ulotlar orqali bu xolatni tuzatish yoki yengillashtirish mumkin. Shu kabi murakkab omillar natijasida yuzaga keladigan nutq buzulishlaridan biri bu Dizatriya hisoblanadi. Dizatrik bolalarning nutqiy tajribasi cheklangan til vositalari takomillashmagan bo'ladi. Nutqiy muloqotga yetarlicha ehtiyoj qondirilmaydi. So'zlashuv nutqi qashshoq, kam so'zli ma'lum vaziyat bilan uzviy bog'liq va shu vaziyatdan tashqarida tushunarsiz bo'lib qoladi. Bunday buzulishlarning kelib chiqishiga sabab bosh miyaning ma'lum bir juft nervlarining zararlanishi bilan izoxlanadi. Dizatrik bolalarni xususiyatlari, nuqsoning tibbiy aspektlari keng o'rganilganligi barobarida maktabgacha yoshdagi dizatrik bolalar nutqning fanetik-fanematik tomonini O'zbekistonda ma'lum darajada o'rganilmaganligi mazkur mavzu yuzasidan o'zbek tilida adabiyotlarning yetarli emasligi va o'ziga ayni damda muayyan e'tiborni kuchaytirilishini talab etmoqda. Maktabgacha yoshdagi dizatrik bolalar nutqining fanetik-fanematik tomonini o'zlashtirishining, pedagogik-korreksion tizimi zarur shart-sharoitlari uslubiy yo'nalishing keng yoritilishi, o'z yechimini kutmoqda. Maktabgacha yoshdagi dizatriyaning yengil shaklga ega bo'lgan bolalar, nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashdagi mavjud metodlar muammoni to'liq xal etolmaydi va dizatriyani bartaraf etish metodikalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Dizatriya bu tovush va so'zlarni talafuz qilinishini qiyinlashtiradigan nevrologik muammolar tufayli yuzaga keladigan nutq buzulishidir. Dizatriyada odam, nutqni tushunadi va yoza oladi. Lekin lablar, til va yumshoq tanglay inervatsiyasining buzulishi tufayli, talafuzda qiyinchiliklarga duch keladi. Dizatriya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, diz- buzulish, arthon biriktrish degan ma'noni bildiradi. Tovush chiqarishda ishtirok etdigan muskullar faoliyatining buzulishi natijasida noaniq g'uldirab gapirish shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzulishlari hamda nutqning surati, ritimi va ifodaliligida o'zgarishlar kuzatiladi. Dizatriyaning og'ir formasida nutq butunlay tushunarsiz bo'ladi. Bunday xolat Anatriya deb ataladi. Anatriya termini grekcha so'zda olingan bo'lib, a-yo'q arthon-biriktirish degan ma'noni bildiradi. Nutq patologiyasining eng dastlabki tasnifida artikulyatsiyani har qanday buzilishi alohida guruhlariga ajratilgan va "dizatriya" termi bilan belgilangan edi. 1888-yilda Gowers nutqining bunday dizatrik buzilishini serebral va bulbar shakllariga ajratdi. Keyinchalik bir necha marotaba dizatriyani, neyroanatomik turkumlarga bo'lish uchun harakatlar qilindi. Masalan, Froeschels 1943-yilda tasnifi tuzilib, u dizatriyani to'rtta shaklga ajratdi. Piramidali, ekstrapiramidal, peshona-pontionli va serebellar. Biroq muammoning kam o'rganilganligi sababli dizatriyani tasniflashda neyroanatomik tamoyilga amal qilish doimo saqlanmadi. Brain 1948-yilda dizatriyaning koordinator va miopatik shakllarini ajratdi.



Dizartriyaning neyroanatomik tamoyiliga amal qilgan holdagi eng mukammal tasnif Peocher tomonidan 1948-yilda ishlab chiqilgan, u dizartriyaning quyidagi shakllarini ko'rsatadi;

1. po'stloqli
2. po'stloqosti xoreya, atetoz, rangsiz sharing shikastlanishi, dumli tana boshchasining shikastlanishi, postensefalatik parkinsonizm, Parkinson kasalligida
3. pedenkulyar;
4. supranuklear /psevdo bulbar/;
5. bulbar nuklear;
6. serebellyar;
7. diensefal;
8. mezeensefal;
9. miya nervlari shikastlanishi bilan bog'liq periferik dizartriya—chuqur sezuvchanlikning buzilishi bilan bog'liq dizartriya;
10. miyaning aralash shikastlanishlaridagi /toksikoz, postkontuzion xolatlar/ dizartriya;
11. epilepsiya paytidagi dizartriya;
12. miasteniyaya paytidagi dizartriya;
13. po'stloqosti ekspressiv afaziyadagi dizartriya.

Dizartriyaning ushbu tasnifini mukammal deb bo'lmaydi. Chunki muallif tomonidan sanab o'tilgan shakllarining hammasi artikulyatsiya buzilishlariga xos emas. Ularning ba'zilari ovoz, nafas, nutqning prosodik tomonining buzilishlari bilan bog'liq. Tor ma'noda bu nutq buzilishlarini disfoniya, dispnevmiya, disprozodiya deb nomlash mumkin. Biroq klinikaga oid adabiyotlarda kam ishlatiladi, shuning uchun shifokorlar umumlashtirib aniq bo'lmasa-da, "dizartriya" terminidan foydalanadilar. Hazard-hugat 1964-yilda "dizartriya" tushunchasi mazmunini yanada qisqartirdi, ya'ni u dizartriya piramidali, ekstrapiramidal yoki serebellyar xarakterdagi umumiy motorikaning buzilishi bilan bog'liq artikulyatsiya nuqsonlarini kiritdi. Rossiyada ham dizartriya muammosi kam o'rganildi. M.S. Margulis 1926-yilda dizartriya barcha nutqiy harakat buzilishlarini kiritadi. Bugungi kunda uning ishlari muhim o'rin tutadi. Chunki u birinchi bo'lib, dizartriyaning motor afaziyadan aniq ajratib o'rganishi va uning bulbar hamda serebral shakllarini ajratib berdi. L.B. Litvak 1959-yilda dizartriya nutq buzilishlarini lokal-dagnostik ahamiyatiga o'z e'tiborini qaratdi. Dizartriya deganda, muallif faqat artikulyatsiya buzilishlarini tushundi, ammo o'z fikriga qarshi ular qatoriga nutqning temp, ritm, ravonligining buzilishi kabi turli xil nuqsonlarni kiritdi. Dizartriya muammosiga bo'lgan qiziqishning uyg'onishi XX asr o'rtalarida sezildi, biroq 1982-yildagina ilk bor dizartriya muammolariga bag'ishlangan ilmiy konferensiya o'tkazildi. Berry, 1983-yilda aynan shu konferensiya materiallaridan foydalanib, dizartriya muammosi, uning klinik belgilari, shakllari bo'yicha ilmiy ishlar paydo bo'ldi. Darley Aronsoh va Brown 1969-1975-yil Aronsoh 1981-yil. G'arbda dizartriya muammolari bo'yicha izlanishlar, ilmiy ishlarning ko'payishi, umuman dizartrik nutqni fonetik tomondan keng o'rganish, keyinchalik esa bemorlarga maxsus tibbiy-pedagogik yordam berish usullarini ishlab chiqish mavzulariga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy ishlar qilindi. (Rose, Espir 1970; Netsell, 1973; Kent, Netsell, 1975; Rosenbek, Lapointe, 1978; Darby, 1981; Jorkstone, Beukelman, 1981; Berry, 1983 va



boshqalar). Dizatriya tabiatini o'rganish logopediya amaliyotida o'z aksini topdi. O.V. Pravdina 1969-yildagi darsliklarida dizatriya tushunchasi nevrologik tomondan yondashib o'rganildi. I.I. Panchenko 1972-yilda o'z ishlarida serebral falaj bilan kasallangan bolalarda dizatriyaning patogenezi, o'ziga xos klinik belgilarining namoyon bo'lishi, shu bilan birga patogenetik tomondan asoslangan logopedik ish metodikasini yaratishga harakat qilganini ko'rishimiz mumkin. R.A. Belova-David (1967), M. Palmer (1967), X. Rif (1969) harakat buzilishlari orasida, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish uchun zarur bo'lgan til, lablarning aniq holatini aytib o'tdilar. Bunday nutq kamchiliklarining tabiati to'liq ochib berilmaganligi sababli, ularni turli xil terminlar bilan nomlash taklif etiladi: artikulyator dispraksiya (M. Morley, 1957), markaziy, organik yoki murakkab dislaliya (M. Zeeman, 1961; L.V. Melyukova, 1967). M. Morley, (1959) va X. Rif (1969) artikulyatsion harakatlarning buzilishi va buning natijasida talaffuz kamchiliklarining kelib chiqishini motor alaliyadan farqli apraktik dizatriya deb nomlashni taklif etdilar. Bolalar serebral falajida dizatriyani to'liq va aniq tasnifini M. B. Eydinova (1959) va Ye.N. Pravdina (1959)lar taklif etadilar. Ularning fikricha, dizatriya bolalar serebral falaji bilan kasallangan bolalarning 65—85%ida kuzatiladi. Bolalar serebral falajining og'ir shaklida bola umuman harakatsizlanib qoladi va bunday bolalarning deyarli hammasida dizatriya (anatriya) kuzatiladi (Ye.M. Mastukova, 1971). Dizatriya nutq nuqsonini diagnoz o'rganish dizatriya muammosining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi (L.B. Litvak, 1959, Ye.N. Vinarskaya 1973). Ye.N. Vinarskaya (1973) tomonidan birinchi marta bosh miyasi jarohatlangan katta yoshdagi kishilarda dizatriya kompleks neyrolingvistik tomondan o'rganildi. Bugungi kunda bolalarda dizatriyani namoyon bo'lishi klinik, neyrolingvistik, psixolog-pedagogik yo'nalishlarda o'rganilmoqda. Bolalarda dizatriya 5%xollarda uchraydi. Quyidagi omillar dizatriyaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

1. Gipoksiya Xomiladorlik paytida va tug'ush paytida xomila uchun kislarodning yengil yoki kuchli yetshmasligi.

2. Rezus faktorning mos kelmasligi.

3. Erta tug'ush. Bolaning mudatidan oldin tug'ulishi.

4. Tug'ush paytidagi jaroxatlar.

5. Yangi tug'ulgan chaqaloqning sariqligi. Gemolitik kasallik unda yadroviy sariqlik xam rivojlanishi mumkin.

6. Miya kasalliklari (meningit, ensifalit, o'smalar, miya jaroxatlari)

7. Yiringli otit.

8. Xomiladorlik paytidagi toksikoz.

9. Onaning fizologik kasalliklari. Ko'pincha xomiladorlik paytida onaning kasalliklari natijasida xosil bo'lgan zaxarli moddalar chaqaloqlarga o'tadi. Bu xomiladorlikni birinchi oyligida ayniqsa xaflidir.

10. Neyroinfeksiya meningit va ensifalit.

11. Hidrosefaliya Menbranalarning yallig'lanishi yoki miya shikastlanishi. Kuchli intoksikatsiya. Ular tanadagi ichki jarayonlar yuqumli kasalliklar, shuningdek tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'ladi.

Dizatriyani tasniflashda jarohatlanish o'chag'ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizatriyani quyidagi turlarga ajratiladi.



1. Bulbar dizartriya.
2. Pseudobulbar dizartriya.
3. Qobiqli dizartriya.
4. Qobiqosti dizartriya.
5. Miyachli dizartriya

Xulosa: Ushbu nutq nuqsoni bolaning ijtimoiy xayotiga tengdoshlari bilan muloqotiga, o'qish va yozishni o'zlashtirishga, shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Shu bois dizartriya ni erta aniqlash differensial tashxis qo'yish va unga nisbatan maxsus logopedik hamda tibbiy pedagogik choralarni qo'llash juda muhimdir. Erta tashxis bolaning kelgusida jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasiga keng yo'l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.R. MO'MINOVA Logopediya. Toshkent (2007)
2. ELEKTRON MANBALAR <https://uz.wikipedia.org>.
3. MO'MINOVA L.R. AYUPOVA M.Y. Bolalarda Dizartriya Nutq Kamchiligini Bartaraf Etish Texnologiyasi. Toshkent (2017)